

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIJY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT**  
**UNIVERSITETI**



**“ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI I”**  
**FANING O‘QUV DASTURI**

**bilim sohasi:** 200000 — Sanʼat va gumanitar fanlar  
 **Taʼlim sohasi:** 230000 — Tillar  
 **Taʼlim yoʻnalishi:** 60230100 — Filologiya va tillarni oʻqitish (oʻzbek tili)

**Urganch — 2025**

Fan/modul kodi ANI.809	O'quv yili 2025-2026, 2028-2029	Semestr I-VII	ECTS - Kreditlar 1-semestr – 5 7-semestr – 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 1-semestr – 4 7-semestr – 4	
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
1. Adabiyotshunoslik nazariyasi I	60	90	150	
Adabiyotshunoslik nazariyasi II	60	90	150	
2. I. Fanning mazmuni: Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga badiiy asar mohiyati va ijod psixologiyasi, badiiy asarning shakli va mazmuni, badiiy asar tabiati va mavzusi, badiiy asar kompozitsiyasi va sujeti, adabiy turlar va janrlar, badiiy obraz, she'riy tizimlar, poetik nutq, ijodiy metod va ijodkor uslubi, badiiy asarni tahlil qilish yo'llari haqida nazariy bilimlar berish va bo'lg'usi filologning ilmiy-estetik tafakkurini shakllantirish. Fanning vazifasi – adabiyotshunoslik tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslik orasidagi bog'lanishni tushuntirish; adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlarini o'rgatish; san'at turlari, xususan, badiiy adabiyotning ijtimoiy-estetik mohiyatini tushuntirish; adabiy tur va janrlar masalasini tahlil qilish; badiiy asar kompozitsiyasi va sujetiga aloqador masalalarni tushuntirish; badiiy asarda mavzu va g'oya, tasviriy vositalar va obraz muammosini tadqiq etish; she'riy tizimlar va vaznlarni tahlil qilish; ijodiy metod, ijodkor uslubi, adabiy jarayonda an'ana va novatorlik masalalarini o'rgatish; talabaga san'at asarlarini his qilishini o'rgatish.				
II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.1. "Adabiyotshunoslik nazariyasi I" fani tarkibiga quyidagi mavzular				

**Kiradi:****1-mavzu. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot to'g'risidagi fan**

Adabiyotshunoslik fanining maqsad va vazifalari. Badiiy asar – adabiyotshunoslik obyektini. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari: adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqid, matnshunoslik, manbashunoslik. Adabiyotshunoslik va adabiy jarayon. Hayot va san'at. San'at turlari. Adabiyot – so'z san'ati. Inson – adabiyotning asosiy obyektini.

**2-mavzu. Adabiyotshunoslik tarixi**

Qadimgi davr adabiyotshunosligi. Arastu – adabiyotshunos. Sharq adabiyotshunosligi: ilmi aruz, ilmi qofiya, ilmi bade'. Tazkiralar – Sharq adabiyotshunosligining muhim manbasi. G'arb adabiyotshunosligi. Bualo, Belinskiy tadqiqotlari. Gegel "Estetika"si. Adabiyotshunoslik rivojida matbuotning o'rni. Adabiyotshunoslikning estetik did va ijtimoiy fikr o'sishiga ta'siri.

**3-mavzu. Badiiy asar mavzusi.** G'oyalarning tabiati, xarakteri va tuzilishi.

Badiiy asar va ilmiy asar. Ijtimoiy hayot va badiiy asar. Xalq og'zaki ijodi – badiiy adabiyot ibtidosi. Folklor namunalari va yozma adabiyot. Matn – asar asosi. Badiiy asar tarkibiy qismlari. Epik turga mansub asarlarning tuzilishi. Lirik (she'riy) turga oid asarlar tarkibining o'ziga xosliklari. Drama turidagi asarlarning tarkibi.

Mavzu – badiiy asarda e'tibor qaratilgan muayyan voqelik. Hayot voqeligi – badiiy asarlar uchun asosiy mavzu. Adabiyotdagi abadiy va davriy mavzular. Mavzuning yoritilishi. Badiiy asar uchun tarixiy voqelik va zamonaviy hayot muammolarining mavzu qilib olinishi. Badiiy asar g'oyasi. G'oyalarning tabiati, xarakteri va tuzilishi.

**4-mavzu. Sujet va kompozitsiya poetikasi. Badiiy asar kompozitsiyasi**

Badiiy asarda shakl va mazmun. Kompozitsiya – badiiy asar tarkibiy qismlarining o'zaro bog'liq joylashishi. Badiiy asar kompozitsiyasi va arxitektonikasi. Adabiy qahramon portreti. Peyzaj. She'riy asarlar kompozitsiyasi. Epik asarlar kompozitsiyasi. Sharq va G'arb she'riyatining o'ziga xos xususiyatlari. An'anaviy va modern asarlar kompozitsiyasi. Mumtoz drama, tragediya, komediyalar kompozitsiyasi.

**5-mavzu. Badiiy asar sujeti**

Sujet – qahramonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalovchi, asar mazmunini tashkil etuvchi voqealarning muayyan tartibda joylashtirilishi. Fabula – bir-biri bilan uzviy bog'liq hayotiy voqealar jamlanmasi. Badiiy asarda sujetning o'rni va ahamiyati. Hayot voqeligi – sujet asosi. Sujetning tarkibiy qismlari: tugun, voqealar rivoji, voqealarning avj nuqtasi, voqealar yechimi. Sujetda badiiy to'qima. Sayyor sujetlar. Xronikal sujetli asarlar. Ko'ptarmoqli sujetli asarlar. Epik, lirik asarlarda sujet. Drama turiga mansub asarlarda sujet.

**6-mavzu. Badiiylik – adabiyotning asosiy xususiyati**

Badiiylik – san'at asosi. Tabiatdagi go'zallik va san'atdagi go'zallik. Badiiy adabiyotda hayot voqeligi va inson obrazi so'z orqali nafis tasvirlanishi. Badiiylik asar mazmuni va shaklining mutanosibligi, uslubining ravonligi, komponentlarining o'zaro uyg'un kelishi, tilining jozibadorligi kabi omillar jamlamasi. So'z – adabiyotning asosiy quroli. Badiiy asar matnida so'z. Badiiylik – obrazlilik. Obraz, obrazlilik, ramz, majoz. Badiiylik – ijodkor mahorati mezonini.

**7-mavzu. Badiiy obraz poetikasi.**

Obraz – san'atga xos hodisa. Adabiyotda obrazning aks etishi. Inson – adabiyotdagi asosiy obraz. Obraz – adabiy qahramon. Asardagi asosiy va boshqa qahramonlar. Personaj, xarakter, tip. Realistik va romantik, fantastik va majoziy obrazlar. Portret – inson obrazini gavdalantirishning muhim unsuri.

### 8-mavzu. Adabiy tur va janrlar

Adabiy turlar va janrlarning soʻz sanʼatidagi oʻrni va ahamiyati. Badiiy asarlar hayot voqeligi va inson obrazini gavdalantirishiga koʻra epos, lirika, drama turiga ajratilishi. Har bir tur janrlarga boʻlinishi. Epos, lirika, drama turidagi asarlarning sheʼriy yoki nast yoʻlida yozilishi. Folklor va yozma adabiyotdagi janrlar.

### 9-mavzu. Sheʼr tuzilishi va sheʼr tizimlari

Sheʼr va nast. Sheʼr nutqning oʻziga xos xususiyatlari. Sheʼrning tarkibiy qismlari: misra, band, ritm, boʻgʻin, turoq, vazn, qofiya. Sheʼr tizimlari: aruz, barmoq, Erkin, sarbast, oq sheʼr. Sharq adabiyotidagi sheʼriy janrlar. Gʻarb adabiyotidagi sheʼriy janrlar. Aruz – Sharq mumtoz sheʼriyatidagi asosiy tizim. Aruz – qisqa, choʻziq va oʻta choʻziq hijolarning muayyan tartibda guruhlanib, takrorlanib kelishi asoslangan metrik sheʼr tizimi. Aruzdagi ritmik birliklar: hiyo, rukn, bahr.

### 10-mavzu. Ijodiy metod va ijodkor uslubi. Yozuvchi va uslub.

Ijodiy metod – hayot hodisalarini tanlash va ularga muayyan dunyoqarash asosida yondashish, talqin qilish yoʻli. Realizm va romantizm ijodiy uslubi. Klassitsizm yoʻnalishi. Naturalizm, sentimentalizm, syurrealizm yoʻnalishi. Ijodkor uslubi. Yozuvchi va uslub aloqadorligi.

## II.2. “Adabiyotshunoslik nazariyasi II” fani tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

### 1-mavzu. Kirish. Adabiyot nazariyasi fan sifatida.

Adabiyot nazariyasining adabiyotshunoslik fani tarkibida tutgan oʻrni. Adabiyotshunoslik fanining maqsad va vazifalari, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari – adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi, adabiy tanqidchilik; yordamchi sohalar – manbashunoslik, matnshunoslik.

### 2-mavzu. Sanʼat – estetik hodisa.

Sanʼatning tabiati va turlari. Sanʼatda inson ruhiyati masalasi. Adabiyot – soʻz sanʼati. Adabiyotning asosiy quroli soʻz ekanligi. Sanʼatning boshqa turlari bilan adabiyotning munosabati. Badiiy adabiyotda soʻzning maqomi va tasvir imkoniyatlari.

### 3-mavzu. Adabiyotning spetsifikasi.

Adabiyotning oʻziga xosligining asosiy belgilari; badiiy adabiyotning vazifasi xususida; badiiy adabiyotning insonshunoslik ekanligi; badiiy adabiyot va ijtimoiy hayotning oʻzaro munosabati; adabiyotda insonning ichki olani tasviri; adabiyot va sanʼatda ruhiyat masalasi; inson his-tuygʻulari va kechinmalarining badiiy tasviri.

### 4-mavzu. Badiiy asarda mavzu va gʻoya tasnifi. Tematologiya.

Badiiy adabiyotdagi umrboqiy va oʻtkinchi, tarixiy va zamonaviy mavzular masalasi; mavzuning mohiyati va dolzarbligi; badiiy asar mavzusi va isteʼdod darajasi; mavzular tasnifiga doir; badiiy gʻoya va ijtimoiy gʻoyaning oʻziga xos qirralari.

### 5-mavzu. Badiiy tafakkur va badiiy obraz.

Badiiy asarda insonning murakkab dunyosi talqini; obrazlarning turli nuqtayi nazardan tasniflari; obrazda umumiylik va xususiylik; obraz va muallif munosabati; obraz va detal; obraz va soʻz; obraz yaratish usullari.

### 6-mavzu. Badiiy asarda shakl va mazmun uygʻunligi

Badiiy mazmun obyektiv va subyektiv ibtidoalar birligi sifatida. Badiiy mazmunning yuzaga chiqishi va mazmun uzvlari haqida. Ijodkor dunyoqarashi va badiiy mazmun. Badiiy sujet tizim sifatida.

### 7-mavzu. Badiiy nutq xususida

Badiiy nutq tushunchasi. Badiiy nutqning spetsifik xususiyatlari. Badiiy nutq shakllari. Badiiy nutq qurilishi. Nutqiy semantika. Koʻchimlar. Badiiy nutqning ritmikligi. Nasriy nutq ritmikligi.

### 8-mavzu. Adabiy tur va janrlar poetikasi.

Adabiy tur tushunchasi va uning tasnifi. Adabiy tur va janrlarning paydo boʻlish masalasi. Adabiy janrg xos belgilar. Epik tafakkur spetsifikasi. Lirika va insonning

ruhiyati, his-tuyg'ulari. Siyosiy, intim, tabiat lirikasi xususida. Lirikizm va drammatizm. Satira va yumor mustaqil ijod turi sifatida. Dramatik asarlar va teatr san'ati. Adabiy tur va janrlardagi o'ziga xoslik hamda uyg'unlik. Tragikomediya.

### 9-mavzu. Ijod psixologiyasi va ijodkor laboratoriyasi.

Ijodkor dunyoqarashining badiiy asarda aks etishi. Dunyoqarash va ijodiy metodlarning o'zaro aloqadorligi. Muallif "men"iga xos xususiyatlar; iste'dod ijodkorlikning bosh alomati; badiiy asar iste'dodi ijodkor poetik olamining mahsuli sifatida; ijodkorga xos ruhiy holatlar; badiiy asarning jamiyatga ta'siri; tarixiy-ijtimoiy hayotning badiiy asarda aks etishi.

### 10-mavzu. Badiiy asarni qabul qilish va taqin etish yo'llari.

Badiiy did masalasi; retseption estetikaning mohiyati xususida; badiiy asarni qabul qilishda yosh psixologiyasi; germenvtik tafakkur tarsi; badiiy asarni tushunish va tushuqtirish yo'llari xususida; badiiy asarni poetik tahlil etish usuli.

## III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

III.1. "Adabiyotshunoslik nazariyasi I" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Qadimgi davr adabiyotshunosligi.
2. Arastu "Poetika"ning o'rganilishi. Arastu tragediya, komediya va drama to'g'risida.
3. Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi" darsligi.
4. Fitratning "Shoir va shoirliq", "Eski turk adabiyoti namunalari", "Tilimiz I", "Tilimiz - 2", "Tilimiz ning abadiyligi" maqolalarini o'qib-o'rganish
5. Cho'lponning adabiy-tanqidiy maqolalarini o'qib-o'rganish.
6. Ilmiy maktablarda adabiy tanqid.
7. Badiiy vaqt va makon.
8. Badiiy asar tilining o'ziga xos xususiyatlari.
9. She'r tizimlari.

10. Ijodiy metod va ijodkor uslubi.

## III.2. "Adabiyotshunoslik nazariyasi II" fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Sharq adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.
2. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixidan.

3. Badiiy adabiyot va folklor munosabati.

4. Badiiy obraz darajasi.

5. Roman janriga xos xususiyatlar muhokamasi.

6. Nasriy asarda ritm. Saj haqida.

7. She'riy san'atlarni farqlash va aniqlash amaliyoti.

8. Badiiy asarda pafos muhokamasi.

9. Ijodiy metod ustidagi bahslar.

10. Muallif, badiiy asar va jamiyat munosabati tahlili.

## IV. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

IV.1. "Adabiyotshunoslik nazariyasi I" fani bo'yicha seminar mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Jahon adiblari adabiyot haqida" kitobidagi maqolalar tahlili.
2. Fitratning "Adabiyot qoidalari" asari tahlili.
3. Cho'lpon ning "Adabiyot nadir?" maqolasi tahlili
4. Abdulla Qodiriyning "Uloqda" hikoyasi tahlili.
5. Abdulla Qahhorning "Dahshat" hikoyasi tahlili.
6. Estetik kategoriyalar va badiiy haqiqat.
7. Motiv, arxetip va tasvirning qirralari.
8. Navoiy she'rlaridagi badiiy san'atlar.
9. Badiiy uslub, adabiy yo'nalishlar.
10. G'.G'ulom she'rlaridagi badiiy san'atlar.

#### **IV.2. “Adabiyotshunoslik nazariyasi II” fani bo'yicha seminar**

mashg'ulotlari uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Adabiyotning funksiyasi.
2. Badiiy asar g'oyasi, mavzusi va estetik ideal.
3. Badiiy asar tili va poetik nâṭq masalasi.
4. Qissa janri va qissaxonlik
5. Lirik tur spetsifikasi.
6. Dramatik tur, tragediya va tragikomediya.
7. Hajviy tafakkur tabiati, satira va yumor.
8. Ijodiy metod va adabiy oqimlar.
9. Adabiy-tarixiy jarayonda an'ana va yangilanish. Ijodkor laboratoriyasi muammolari.
10. Adabiyot nazariyasi va adabiy jarayon munosabati.

#### **V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

**V.1. “Adabiyotshunoslik nazariyasi I” fani bo'yicha mustaqil ta'lim** uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
2. Seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
3. Aristotelning “Poetika” asarini o'qib-o'rganish.
4. Forobiyning “She'r san'ati” asarini o'qib-o'rganish.
5. Alisher Navoiyning “Majolis un nafois” asarini o'qib-o'rganish.
6. Alisher Navoiyning “Mezon ul avzon” asarini o'qib-o'rganish.
7. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul lug'atayn” asarini o'qib-o'rganish.
8. Boburning “Muxtasar” asarini o'qib-o'rganish.
7. Fitratning “Adabiyot qoidalari” asarini o'qib-o'rganish.
8. Fitratning “Aruz haqida” asarini o'qib-o'rganish.

9. P.Shellining “Poeziya himoyasi” traktatini o'qib-o'rganish.

10. H.Boltaboyev, M.Mahmudovning “Adabiy-estetik tafakkur tarixi” kitobini o'qib-o'rganish.

11. U.Normatovning “Qodiriy mo'jizasi” kitobini o'qib-o'rganish.

12. I.G'afurovning “Mangu latofat” kitobini o'qib-o'rganish.

13. Yc.Is'hoqovning “So'z san'ati so'zligi” kitobini o'qib-o'rganish.

14. O.Sharafiddinovning “Ijodni anglash baxti” kitobini o'qib-o'rganish.

15. O.Sharafiddinovning “Dovondagi o'yalar” kitobini o'qib-o'rganish.

16. “Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar” o'quv qo'llanmasini o'qib-o'rganish.

17. Sharq adabiyotshunosligining o'ziga xos qirralari.

18. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixiga oid manbalarni o'qish.

19. Badiiylik mezonlari.

20. Obrazli tafakkur tabiati.

21. Obraz, xarakter, tip; umumiylik va o'ziga xosliklar.

22. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi.

23. Aruz vazni, barmoq vazni: nazariy adabiyotlar.

24. Adabiy jarayonda ijod va ijodkor muammosi.

25. Badiiy ijod psixologiyasi.

26. Adabiyotda an'ana va novatorlik.

27. Ijodiy metod va adabiy oqim masalasi.

28. Postmodernizm va intertekstuallik.

**V.2. “Adabiyotshunoslik nazariyasi II” fani bo'yicha mustaqil ta'lim** uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
2. Seminar mashg'ulotlarga tayyorgarlik.
3. Sharq adabiyotshunosligining o'ziga xos qirralari.
4. G'arb adabiy-nazariy tafakkuri tarixiga oid manbalarni o'qish.

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalalar.</li> </ul>
5.	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p><b>IX. Asosiy adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.</li> <li>2. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.</li> <li>3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Noshir, 2019.</li> </ol> <p><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. Sharq mumtoz poetikasi (H.Boltaboyev talqinida). – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2008.</li> <li>5. Valixojayev V. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 1993.</li> <li>6. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007.</li> <li>7. Тамарченко Н.Д., Тюпа В.И., Бройтман С.Н. Теория литературы. В двух томах. Том 1. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика: Учебное пособие. – Москва: Академия, 2004.</li> <li>8. Хализев В.Е. Теория литературы: Учебник. – Москва: Высшая школа, 1999.</li> <li>9. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2007.</li> <li>10. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademiashar, 2013.</li> <li>11. Боров Ю. Эстетика. – Москва, 2006.</li> <li>12. Поспелов М. Теория литературы. – Москва, 1978.</li> </ol>

	<ol style="list-style-type: none"> <li>5. Badiiylik mezonlari.</li> <li>6. Obrazli tafakkur tabiati.</li> <li>7. Ijtimoiy g'oya va badiiy g'oya o'rtasidagi umumiylik.</li> <li>8. Ijodkor shaxsiyati va ijodiy individuallik masalasi.</li> <li>9. Badiiy ijod psixologiyasi.</li> <li>10. Postmodernizm va intertekstuallik.</li> </ol>
3.	<p><b>VI. Fan e'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• adabiyotshunoslik predmeti va adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, adabiyotshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi, adabiyot tarixi, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid, adabiy turlar va adabiy janrlar, ijodiy uslublar va ijodiy yo'nalish, e'qimlar, badiiy adabiyotning o'ziga xosligi <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.</i></li> <li>• ushbu fan yuzasidan bakalavr talaba lirik, epik, dramatik janrlar, she'r tuzilishi, san'atning paydo bo'lishi haqidagi nazariyalarni, poetik tafakkurning o'ziga xos xususiyatlari, badiiy obraz turlari, badiiy tasvir vositalari, lafziy va ma'naviy san'atlarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi lozim.</i></li> <li>• "Adabiyotshunoslik nazariyasi" fanidan talaba adabiy asarlarning janrini farqlay olish, adabiy matnni asl manbasi bilan solishtira bilish, asar sujetini tarkibiy qismlarga ajratish, matndagi muallif va qahramon nutqini farqlash, badiiy asarni nazariy jihatdan tahlil qila bilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i></li> </ul>
4.	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol metodlar, keysy-stadilar;</li> <li>• individual topshiriqlar;</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlar qilish;</li> </ul>

**Axborot manbalari:**

1. [www.litera.ru](http://www.litera.ru).
2. [www.literature.uz](http://www.literature.uz)
3. [www.zivonet.uz](http://www.zivonet.uz)
4. [www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)
5. [www.zivouz.com](http://www.zivouz.com)
6. [www.turonlib.uz](http://www.turonlib.uz)

7. Mazkur o'quv dastur Farobiy nomidagi Qozog'iston universitetidagi filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi uchun "Литература введении" fanidan tuzilgan o'quv dastur (<https://farabi.university/?lang=ru>) asosida takomillashtirilib, Abu-Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

**8. Fan/modul uchun mas'ullar:**

S.Kurbanova – UrDU, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida dotsenti, f.f.n.  
I.Ismoilov – UrDU, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida dotsenti, f.f.n.

**9. Taqrizchilar:**

S. Matkarimova – UrDU, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida dotsenti, f.f.n.  
N. Sabirova – Xorazm viloyati XTXXQTMOHM "Tillarni o'qitish metodikasi" kafedrasida mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent

Mazkur o'quv dastur universitet o'quv-uslubiy Kengashining 2025-yil "29" - 08 dagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur o'quv dastur "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasining 2025-yil "27" - 08 dagi 1-sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:  D. G'ayipov

Fakultet dekani:

Kafedra mudiri:

Tuzuvchi:

B.Rahimova

S.Kurbanova